

## TIJORAT BANKLARIDA XALQARO PUL O'TKAZMALARI VA ULARNING HISOBI

Primova Dilafruz To'lqinovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti

“Bank va moliya” kafedrasining assistanti

E-mail: : [primovadilafruz365@gmail.com](mailto:primovadilafruz365@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada tijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalari va ularning buxgalteriya hisobini yuritish masalalari yoritilgan. Hozirgi kunda globallashuv jarayonlari, migratsiya oqimlari, xalqaro savdo va investitsiyalar hajmining ortib borayotgani fonida tijorat banklarining xalqaro pul o'tkazmalarini samarali amalgamoshishi muhim masalaga aylangan. Ushbu jarayonlar nafaqat iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi, balki fuqarolarning moliyaviy aloqalarini ham kengaytiradi. Maqolada xalqaro pul o'tkazmalarining turlari, ularni amalgamoshish mexanizmlari, ularning hisobda aks ettirilishi, hujjatlashdirish tartiblari va ularning hisob siyosatidagi o'rni batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro pul o'tkazmalarining moliyaviy xavflari, komplayens talablari, pul yuvishga qarshi kurashish choralar, mijozni aniqlash va verifikatsiya qilish mexanizmlari, valuta konversiyasi va banklarning bu operatsiyalar uchun undiriladigan komissiya to'lovlarini muhokama qilingan.*

**Kalit so'zlar:** Tijorat banklari, xalqaro pul o'tkazmalari, moliyaviy hisobot, audit, bank operatsiyalari, audit standartlari, moliyaviy nazorat, pul o'tkazmalari tizimi, xavfsizlik, tranzaksiya, avtomatlashtirish, bank infratuzilmasi, banklararo tizim, global moliya, audit samaradorligi, pul oqimlari, bank xavfsizligi, bank ishi.

### ABSTRACT

*This article discusses the issues of international money transfers and their accounting in commercial banks. Nowadays, against the backdrop of globalization processes, migration flows, and the increasing volume of international trade and investments, the effective implementation of international money transfers by commercial banks has become an important issue. These processes not only support economic activity, but also expand the financial relations of citizens. The article analyzes in detail the types of international money transfers, the mechanisms for their implementation, their reflection in the account, documentation procedures, and their role in accounting policy. It also discusses the financial risks of international money transfers, compliance requirements, measures to combat money laundering, customer*

*identification and verification mechanisms, currency conversion, and commission fees charged by banks for these operations.*

**Keywords:** Commercial banks, international money transfers, financial reporting, audit, banking operations, auditing standards, financial control, money transfer system, security, transaction, automation, banking infrastructure, interbank system, global finance, audit efficiency, cash flows, bank security, banking.

### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассматриваются вопросы международных денежных переводов в коммерческих банках и их учета. В настоящее время, на фоне процессов глобализации, миграционных потоков, увеличения объемов международной торговли и инвестиций, эффективное осуществление международных денежных переводов коммерческими банками стало актуальным вопросом. Эти процессы не только поддерживают экономическую деятельность, но и расширяют финансовые связи граждан. В статье представлен подробный анализ видов международных денежных переводов, механизмов их осуществления, их отражения на счете, процедур документирования и их роли в учетной политике. Также обсуждаются финансовые риски, связанные с международными денежными переводами, требования к соблюдению требований, меры по борьбе с отмыванием денег, механизмы идентификации и верификации клиента, конвертация валюты и комиссионные сборы, взимаемые банками за эти операции.

**Ключевые слова:** Коммерческие банки, международные денежные переводы, финансовая отчетность, аудит, банковские операции, стандарты аудита, финансовый контроль, система денежных переводов, безопасность, транзакция, автоматизация, банковская инфраструктура, межбанковская система, глобальные финансы, эффективность аудита, денежные потоки, банковская безопасность, банковский бизнес.

### **KIRISH**

Global iqtisodiy aloqalarning jadallik bilan rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitida xalqaro pul o'tkazmalari moliyaviy tizimning ajralmas qismiga aylangan. Xususan, iqtisodiy integratsiya jarayonlari, chet ellarda ishlayotgan migrantlar sonining ortishi, xorijiy investitsiyalarning ko'payishi va savdo aloqalarining kengayishi bu jarayonni yanada faollashtirmoqda. Ushbu o'zgarishlar tijorat banklari faoliyatida xalqaro pul o'tkazmalarining ahamiyatini keskin oshirgan. Bugungi kunda nafaqat yirik korxonalar, balki oddiy fuqarolar ham xalqaro miqyosda pul o'tkazmalarini tez va xavfsiz tarzda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishni istaydilar. Shu sababli, tijorat banklarining xalqaro pul o'tkazmalarini tashkil

etishdagi roli va bu jarayon bilan bog‘liq hisob amaliyotlarini to‘g‘ri yuritishi juda muhim masalaga aylangan.

Xalqaro pul o‘tkazmalari deganda bir davlatdan ikkinchi davlatga pul mablag‘larini uzatish tushuniladi. Bu jarayon asosan banklar, maxsus to‘lov tizimlari yoki elektron to‘lov platformalari orqali amalga oshiriladi. Ayniqsa, SWIFT, Western Union, MoneyGram kabi xalqaro moliyaviy tizimlar vositasida bajariladigan o‘tkazmalar eng keng tarqalgan shakl hisoblanadi. Bu xizmatlarning asosiy ustunlik jihatlari – tezkorlik, ishonchlilik, xavfsizlik va global qamrovdir. Shu bilan birga, bu tizimlar orqali amalga oshiriladigan operatsiyalarini aniq, shaffof va qonunchilikka muvofiq ravishda hisobda aks ettirish banklar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklarida xalqaro pul o‘tkazmalar bo‘yicha amalga oshiriladigan operatsiyalar, odatda, aniq hisob-kitob va buxgalteriya yozuvlari bilan birga olib boriladi. Har bir xalqaro tranzaksiya moliyaviy hujjatlar, shartnomalar, to‘lov topshiriqnomalari asosida rasmiylashtiriladi va bankning hisob siyosatiga muvofiq tarzda aks ettiriladi. Pul o‘tkazmalarini yuritish jarayonida banklar valyuta kursi farqlari, tranzaksiya to‘lovleri, komplayens (qonunchilikka rioya qilish) talablari, mijozni aniqlash tartib-qoidalari kabi omillarga e’tibor qaratadi. Bu omillar har bir operatsiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi va moliyaviy nazoratda aniqlik bo‘lishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida ham xalqaro pul o‘tkazmalarining hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Bu borada tijorat banklari muhim rol o‘ynaydi. Aholi orasida xorijdan pul jo‘natmalarini olish, chet elga to‘lovlar yuborish, xalqaro savdo-sotiqa ishtirok etish bilan bog‘liq ehtiyojlar ortib bormoqda. Shu boisdan, xalqaro pul o‘tkazmalar bo‘yicha zamonaviy xizmatlarni joriy qilish, ularning hisobini yuritishda avtomatlasinghtirilgan tizimlardan foydalanish, xalqaro standartlarga mos amaliyotlarni shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

## **ADABIYOTLAR SHARHI**

Xalqaro pul o‘tkazmalari davlatlar o‘rtasidagi moliyaviy va iqtisodiy aloqalarning muhim qismi hisoblanadi. Adabiyotlarda xalqaro pul o‘tkazmalarining nazariy asoslari va ularning amaliyoti keng yoritilgan. Xalqaro pul o‘tkazmalarining rivojlanishi globalizatsiya jarayonlari bilan uzviy bog‘liqdir. Globalizatsiya ta’sirida davlatlar o‘rtasida moliyaviy hamkorlik kengayib, tijorat banklari bu jarayonning muhim ishtirokchisiga aylangan. Adabiyotlarda xalqaro pul o‘tkazmalarining nazariy asoslari va ularning amaliyoti keng yoritilgan. Xalqaro pul o‘tkazmalarining rivojlanishi globalizatsiya jarayonlari bilan uzviy bog‘liqdir. Globalizatsiya ta’sirida davlatlar o‘rtasida moliyaviy hamkorlik kengayib, tijorat banklari bu jarayonning muhim ishtirokchisiga aylangan. Ba’zi tadqiqotchilar, masalan, E.Altman xalqaro

moliya institutlarining global iqtisodiy tizimdagи rolini tahlil qilgan. U xalqaro moliyaviy aloqalar orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va kapital oqimlarining barqarorligini ta'minlash yo'llarini ko'rib chiqadi [5].

SWIFT tizimi banklar va moliyaviy institutlar o'rtasidagi pul o'tkazmalarini tezlashtirish va xavfsizlikni ta'minlashda global standart sifatida qabul qilingan. D.T.Llewellyn o'z ishida xalqaro to'lov tizimlarining ahamiyatini ko'rsatib o'tadi, u SWIFT tizimining rivojlanishi xalqaro bank faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lishini ta'kidlaydi [6].

Xalqaro bank amaliyotiga oid tadqiqotlarda G.Rose va D.Singh kabi olimlar SWIFT tizimining xalqaro pul o'tkazmalaridagi samaradorligini va uning auditiga bo'lgan ehtiyojni tahlil qilganlar. Ular pul o'tkazmalari tizimining xavfsizligi va ishonchlilikini ta'minlash uchun SWIFT texnologiyasini yanada rivojlanirish kerakligini ta'kidlaydi [7].

C.Montgomery o'z tadqiqotida xalqaro pul o'tkazmalari auditni uchun asosiy tamoyillarni belgilab bergan. Uning fikricha, xalqaro moliyaviy operatsiyalar auditini amalga oshirishda asosiy e'tibor operatsiyalarning shaffofligi, xavfsizligi va ishonchlilikiga qaratilishi kerak. Shu bilan birga, audit jarayonida texnologik yutuqlardan foydalanish, xususan, avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish muhim omil hisoblanadi [8].

O'zbekistonning yetuk iqtisodchi olimlari Sh.U.Azizov, B.T.Berdiyarov, R.D.Dusmuratov, A.K.Ibragimov, N.F.Karimov, Z.T.Mamatov, X.N.Musaev, O.S.Norqobilov, U.O.Saxobov, M.M.Tulaxodjaeva, Z.A.Umarov va B.A.Xasanov tijorat banklarida ichki bank operatsiyalarining hisobi hamda audit tizimi bilan bog'liq muammolarni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ularning izlanishlari banklar faoliyatini yanada shaffof, samarali va moliyaviy nazorat jihatdan barqaror qilishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, iqtisodchi olim N.F.Karimov tomonidan olib borilgan ishlarda tijorat banklarining ichki nazorat tizimi, audit xizmatlarini standartlashtirish, audit rejasini tuzishda muhimlik mezonlari va tekshiruv ob'ektlarini to'g'ri aniqlash kabi jihatlar alohida tahlil qilinib, ularni takomillashtirish bo'yicha chuqur ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan [9].

## **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Mazkur tadqiqotda tijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalarining mohiyati, amalga oshirish tartibi va hisobini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Tadqiqotning metodologik asosini ilmiylik, tizimlilik va komplekslik tamoyillari tashkil etdi. Xalqaro pul o'tkazmalari bilan bog'liq bank amaliyotlarini o'rganishda nazariy manbalar, amaldagi qonunchilik hujjatlari, tijorat banklari faoliyati va xalqaro tajriba

asos qilib olindi. Tadqiqot jarayonida statistik ma'lumotlar tahlili, huquqiy hujjatlar sharhi, solishtirma tahlil va amaliy kuzatuv usullari qo'llanildi. Ayniqsa, O'zbekiston tijorat banklarining xalqaro moliyaviy xizmatlar bozoridagi o'rni, mavjud imkoniyatlari va duch kelayotgan muammolarini aniqlashda statistik ko'rsatkichlardan foydalanildi. Xalqaro tajriba bilan taqqoslash orqali ilg'or bank tizimlarida qo'llanilayotgan mexanizmlar o'rganildi va ular asosida milliy bank amaliyotiga mos takliflar ishlab chiqildi. Shuningdek, tijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalari bilan bog'liq ichki reglamentlar, hisob yuritish tartiblari va audit talablariga oid amaliy holatlar ham tahlil qilindi. Kuzatuv va suhbatlar orqali amaldagi xizmat ko'rsatish jarayoni va mijozlar ehtiyojiga moslashuv darajasi baholandi. Tadqiqot metodologiyasi tanlangan mavzuning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularning yechimlariga yo'naltirilgan takliflar ishlab chiqishga xizmat qildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro pul mablag'larini bir mamlakatdan boshqa davlat hududiga uzatish amaliyoti xalqaro pul o'tkazmalari deb yuritiladi. Bunday moliyaviy operatsiyalar, odatda, tijorat banklari, xalqaro moliyaviy institutlar yoki raqamli to'lov platformalari yordamida amalga oshiriladi. Pul jo'natuvchi shaxs va mablag' oluvchining joylashuvi turli davlatlarda bo'lishi sababli, ushbu o'tkazmalar ko'plab tartib-taomillarga asoslangan holda bajariladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy davlatlardan kelayotgan pul mablag'larini qabul qilish va ularni tezkor ravishda manzilga yetkazish bo'yicha faoliyat yuritayotgan bir nechta asosiy xizmat ko'rsatuvchi tizimlar mavjud. Jumladan, tijorat banklari, xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari (Western Union, MoneyGram kabi) hamda zamonaviy elektron to'lov vositalari (PayMe, Zolotaya Korona, Contact va boshqalar) bu borada yetakchi o'rin egallaydi.

Xalqaro pul o'tkazmalari bilan shug'ullanuvchi xizmat ko'rsatuvchi tizimlar foydalanuvchilarga yanada qulay va samarali sharoit yaratishga intilmoqda. Bu yo'nalishda ular ilg'or raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan, yuqori tezlik va ishonchilikni ta'minlaydigan xizmatlarni taklif etmoqda. Ushbu xizmatlar yordamida mijozlar istalgan vaqtida, ortiqcha hujjatlashtirish talablarisiz, o'z mablag'lariga tez va oson tarzda ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Ayniqsa, xorijiy davlatlardan yuborilgan pul mablag'lari O'zbekiston hududida faoliyat yuritayotgan banklar tarmog'i orqali yoki ularning mobil ilovalari yordamida bir necha daqiqa ichida qabul qilinmoqda. Jarayonning soddaligi, arzonligi va tezkorligi sababli bu xizmatlar aholining keng qatlamlari orasida keng qo'llanilmoqda.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda xorijiy davlatlardan pul mablag‘larini qabul qilishda xalqaro to‘lov tizimlari hamda tijorat banklari asosiy vosita sifatida faoliyat yuritmoqda. Ushbu moliyaviy vositalar mamlakat aholisi orasida keng qo‘llaniladi va ulardan foydalanish tobora ommalashib bormoqda. Ularning yordamida chet eldan jo‘natilayotgan mablag‘lar tez va ishonchli tarzda qabul qilinadi. Quyida aynan O‘zbekistonda keng tatbiq etilayotgan xalqaro pul o‘tkazmalarini xizmatlari turlari bilan tanishish mumkin (1-jadval):

### 1-jadval

#### O‘zbekistondagi xalqaro pul o‘tkazish xizmatlari<sup>1</sup>

№	Xalqaro pul o‘tkazmalarini	Vazifikasi
1	Western Union	Western Union dunyodagi eng mashhur xalqaro pul o‘tkazish tizimlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda bu xizmat juda keng qo‘llaniladi, ayniqsa mehnat migrantlari tomonidan yuboriladigan pullarni olishda foydalaniladi. Western Union xizmatlari orqali tez va xavfsiz pul o‘tkazish mumkin. Mijozlar mablag‘larni banklar va Western Union filiallaridan olishlari yoki yuborishlari mumkin.
2	SWIFT tizimi	SWIFT tizimi dunyo bo‘ylab banklararo pul o‘tkazmalarini amalga oshiradigan global tarmoqdir. Ushbu tizim orqali yirik xalqaro moliyaviy tranzaksiyalarni amalga oshirish mumkin. SWIFT tizimi asosan banklar tomonidan xalqaro pul o‘tkazmalarini amalga oshirishda foydalaniladi va korxonalar, yirik investorlar uchun mos keladi.
3	AsiaExpress	AsiaExpress - Rossiya va O‘zbekistonda pul o‘tkazmalarini yuborish va qabul qilish uchun foydalni, ishonchli, qulay, shuningdek tezkor pul o‘tkazmalarini tizimlaridan biri. Ushbu tizim bankda hisob ochmasdan pul o‘tkazmalarini yuborish yoki qabul qilish imkonini taqdim etadi. AsiaExpress tizimi bo‘yicha pul o‘tkazmalarini Hamkorbankning barcha bank ofislarida amalga oshiriladi.
4	MoneyGram	MoneyGram ham xalqaro pul o‘tkazmalarida ko‘p qo‘llaniladigan tizimlardan biridir. Bu xizmat orqali O‘zbekistonga mablag‘ yuborish va olish oson va tez amalga oshiriladi. MoneyGram xizmatlari ko‘pincha Rossiyada va boshqa MDH davlatlarida ishlayotgan mehnat migrantlari orasida keng tarqalgan.
5	Unistream	Unistream tizimi Rossiya va boshqa mamlakatlarda faoliyat yuritadi va O‘zbekistonga pul o‘tkazish uchun tez va qulay yo‘l hisoblanadi. Bu xizmat mehnat migrantlari orasida mashhur bo‘lib, odatda tezkor va past xizmat haqlari bilan ajralib turadi.
6	Золотая Корона	Золотая Корона ham Rossiyada mashhur bo‘lgan xalqaro pul o‘tkazish xizmatlaridan biridir. Ushbu tizim orqali O‘zbekistonga pul

<sup>1</sup> Muallifi tomonidan tayyorlandi

		o‘tkazmalarini amalga oshirish oson. Xizmatlari ko‘pincha Rossiyada faoliyat yuritayotgan o‘zbekistonlik mehnat migrantlari tomonidan qo‘llaniladi.
--	--	---

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan O‘zbekistondagi xalqaro pul o‘tkazish xizmatlarining xilma-xilligi migrantlar va ularning oilalari uchun qulay sharoitlar yaratmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida xalqaro pul o‘tkazmalari tizimi moliyaviy sektorning muhim tarkibiy qismidir. Ayniqsa, tijorat banklarining bu boradagi roli juda katta ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda mamlakatda xorijdan pul o‘tkazmalariga bo‘lgan talab ortib borayotgani sababli, banklar o‘z infratuzilmasini yangilash, zamonaviy to‘lov tizimlari bilan integratsiyalashish hamda tezkor xizmat ko‘rsatish usullarini joriy etishga intilmoqda. O‘zbekiston tijorat banklarida xalqaro pul o‘tkazmalari asosan SWIFT, Western Union, MoneyGram, Zolotaya Korona, Contact kabi yirik tizimlar orqali amalga oshiriladi.

Ushbu tizimlar orqali jismoniy shaxslar xorijdan pul mablag‘larini qabul qilib olishlari, o‘zлari ham boshqa davlatlarga mablag‘ yuborishlari mumkin. Banklar esa bu xizmatlar uchun belgilangan tartibda komissiya undirishadi hamda amalga oshirilgan har bir tranzaksiyani hisobda aks ettiradi. Hisob-kitoblar asosan xorijiy valyutada yuritiladi, lekin qabul qiluvchi shaxs istagiga ko‘ra milliy valyutada naqd yoki hisob raqamiga tushirish mumkin. Quyidagi jadvalda O‘zbekiston tijorat banklarida xalqaro pul o‘tkazmalari va ularning hisobga olish tartibi bo‘yicha asosiy jihatlar keltirilgan (2-jadval):

### 2-jadval

#### **O‘zbekiston tijorat banklarida xalqaro pul o‘tkazmalari va ularning hisobga olinishi<sup>2</sup>**

Bank nomi	Tashqi pul o‘tkazmalar tizimi	Komissiya miqdori	Valyuta turi	Hisobga olish usuli	O‘tkazma muddati	Qabul qilish shakli
Agrobank	SWIFT, Western Union	0.5–1.5%	USD, EUR, RUB	Valyuta hisobvarag‘iga	5 daqiqadan 2 kungacha	Naqd yoki hisobga tushirish
Ipoteka Banki	MoneyGram, SWIFT	0.7–2%	USD, EUR	Hisob-kitob registrlari	10 daqiqagacha	Naqd yoki plastik karta
Hamkorbank	Zolotaya Korona, Contact	0.5–1%	RUB, USD	Elektron registrlar orqali	5–30 daqiqa	Naqd pul, karta yoki hisob

<sup>2</sup> Muallfi tomonidan tayyorlandi

Asakabank	SWIFT	0.6–1.2%	USD, EUR	SWIFT hisob tizimi asosida	1–2 ish kuni	Hisobga o'tkaziladi
Turonbank	Western Union, Contact	0.8–1.5%	USD, RUB	Elektron hujjatlar asosida	5 daqiqadan kam	Naqd yoki karta orqali
Davrbank	MoneyGram, Zolotaya Korona	0.5–1%	USD, EUR, RUB	Buxgalteriya registratsiyasi	5–15 daqiqa	Hisobga tushirish, naqd

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston tijorat banklari xalqaro pul o‘tkazmalarini amalga oshirishda turli xil xalqaro tizimlar bilan hamkorlik qilmoqda. Bu tizimlar o‘rtasida SWIFT, Western Union, MoneyGram, Zolotaya Korona va Contact eng ko‘p qo‘llaniladiganlari hisoblanadi. Har bir bank o‘zining texnik infratuzilmasiga, mijozlar bazasiga va xizmat turlariga qarab o‘zgacha yondashuvni tanlagan. Masalan, Agrobank va Turonbank singari yirik banklar bir nechta xalqaro o‘tkazma tizimlari bilan bir vaqtida ishlaydi. Bu esa mijozlarga tanlov erkinligini, xizmatdan foydalanishda qulaylik va tezlikni ta’minlaydi. SWIFT tizimi asosan korporativ mijozlar va yirik tranzaksiyalar uchun ishlatiladi, chunki u yuqori xavfsizlik va keng qamrovli hujjatlashtirish tizimiga ega. Shu bilan birga, bu tizim orqali amalga oshirilgan o‘tkazmalar odatda 1–2 ish kuni davom etadi, bu esa boshqa tezkor tizimlarga nisbatan sekinroq hisoblanadi.

Western Union, MoneyGram va Zolotaya Korona esa jismoniy shaxslar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ularning asosiy afzalligi – bu tezkorlik va osonlikdir. Ular orqali bir necha daqiqada pul yuborish yoki qabul qilish mumkin. Banklar bu xizmatlar uchun 0.5% dan 2% gacha komissiya undirishadi, bu esa tizim va tranzaksiya hajmiga qarab o‘zgaradi. Narxning turlicha bo‘lishi banklararo raqobatni kuchaytiradi va mijozlar uchun xizmat sifati oshishiga sabab bo‘ladi.

Valyuta jihatidan qaralganda, barcha banklar AQSH dollari (USD) va yevro (EUR) bilan ishlaydi. Ayrim banklar Rossiya rubli (RUB)ni ham qabul qiladi, bu esa MDH davlatlaridan ko‘proq pul o‘tkazilishini anglatadi. Hisobga olish usullarida esa banklar buxgalteriya registrlari, elektron hujjatlar assosidagi tizimlar va SWIFT platformalariga tayangan holda ish olib boradi. Bu ularning xalqaro standartlarga moslashayotganini ko‘rsatadi.

Qabul qilish shakllariga to‘xtaladigan bo‘lsak, deyarli barcha banklar naqd pulda, plastik kartaga yoki hisob raqamiga tushirish orqali xizmat ko‘rsatadi. Bu esa aholi uchun moslashuvchanlik va qulaylik yaratadi. Jumladan, Hamkorbank va Davrbank singari banklarda elektron hisob-kitoblar bilan bir qatorda zamonaviy mobil ilovalar orqali ham xizmatlar ko‘rsatilmoqda.

Yakuniy tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston tijorat banklari xalqaro pul o'tkazmalarida ko'p yo'nalishli tizimlarni rivojlantirgan, ammo hali ham texnologik yangilanishlar, raqamli xavfsizlik va xizmatlar diversifikatsiyasiga ehtiyoj sezilmoqda. Shu bilan birga, banklar mijozlar ehtiyojlariga javob bera oladigan xizmat turlarini joriy etishga harakat qilmoqda. Kelgusida bu sohadagi raqobat kuchayishi hisobiga narxlar barqarorlashishi va xizmat sifati yana-da oshishi kutilmoqda.

## XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalarini va ularning hisobi bugungi kunda bank tizimining eng dolzARB va tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi, xalqaro savdoning kengayishi, mehnat migratsiyasi va xorijiy investitsiyalarning o'sib borishi natijasida, xalqaro miqyosda pul mablag'larini o'tkazish xizmatlariga talab tobora ortib bormoqda. Mazkur maqolada tijorat banklarining xalqaro pul o'tkazmalarini amalga oshirishdagi asosiy yo'nalishlari, hisobot yuritish tartibi, xalqaro moliyaviy tizimlar bilan integratsiyasi va ularni hisobda aks ettirishning amaliy jihatlari atroflicha o'rGANildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston tijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalarini bo'yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalar ko'lami yildan-yilga kengayib bormoqda. Biroq ushbu yo'nalishda hali to'liq hal qilinmagan qator muammolar mavjud: jumladan, xalqaro standartlarga to'liq mos keluvchi buxgalteriya hisob tizimining yetarli darajada shakllanmaganligi, ayrim hollarda valyuta operatsiyalarining kechikishi, SWIFT va boshqa tizimlar orqali tranzaktsiyalarni avtomatlashtirish darajasining pastligi kabi kamchiliklar mavjud. Shu boisdan, ushbu sohani yanada takomillashtirish va zamonaviylashtirish bo'yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, tijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalarini hisobga olish tizimini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida yanada takomillashtirish zarur. Bu, ayniqsa, audit va moliyaviy nazoratni amalga oshirishda aniqlik va shaffoflikni ta'minlaydi.

Ikkinchidan, banklarda SWIFT, Western Union, MoneyGram, Zolotaya Korona kabi xalqaro tizimlar bilan ishlashni avtomatlashtirish va integratsiyani chuqurlashtirish orqali operatsion samaradorlikni oshirish muhim hisoblanadi. Bu o'z navbatida mijozlarga tezkor xizmat ko'rsatish imkonini yaratadi.

Uchinchidan, bank xodimlari uchun xalqaro pul o'tkazmalarini bilan bog'liq operatsiyalarni yuritishda zamonaviy axborot texnologiyalari, buxgalteriya hisob

tizimlari va xalqaro moliya qonunchiligi bo'yicha doimiy malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur.

To'rtinchidan, xalqaro tajribani o'rganish va uni milliy sharoitga moslashtirib joriy qilish ham dolzarb vazifalardan biridir. Bu orqali ilg'or yondashuvlar va samarali boshqaruv uslublari mamlakatimiz tijorat banklari amaliyatiga tatbiq etilishi mumkin.

Beshinchidan, banklar o'rtasida yagona axborot almashinushi platformasini yaratish orqali pul o'tkazmalari ustidan monitoring va nazoratni kuchaytirish mumkin. Bu nafaqat firibgarlik va xavf-xatarlarning oldini olishga, balki moliyaviy barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi.

Umumiyligida qilib aytadigan bo'sak, tijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalari va ularning hisobi bo'yicha olib borilayotgan islohotlar izchil davom ettirilsa, bu soha nafaqat banklar daromadini oshiradi, balki mamlakatning global moliyaviy tizimdagagi pozitsiyasini ham mustahkamlaydi. Shu boisdan, mazkur yo'nalishda ilmiy asoslangan strategik yondashuvlar, amaliy takliflar va davlat siyosati uyg'un holda olib borilishi zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 2019-yil 11-noyabrdagi O'RQ-582-sonli Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni
3. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3272-sonli Qarori
5. Altman E.I. The Role of International Financial Institutions in the Global Economy. – Journal of Banking and Finance, 2006. Vol. 30, Issue 5. – Pp. 1231–1248.
6. Llewellyn D.T. The Role of Payment Systems in Banking Efficiency. – Journal of Financial Regulation and Compliance, 1999. Vol. 7, No. 2. – Pp. 142–149.
7. Rose G., Singh D. Enhancing SWIFT Efficiency and Audit Transparency in Cross-Border Transactions. – International Journal of Banking and Finance, 2012. Vol. 8, Issue 3. – Pp. 200–218.
8. Montgomery C. Principles of International Financial Transactions Audit. – Global Finance Review, 2016. Vol. 12, No. 4. – Pp. 89–106.

9. Karimov N.F. Tijorat banklarida ichki auditni tashkil qilish va uni takomillashtirish muammolari: Iqtisod fan. dok. diss.avtoreferati – Toshkent: BMA, 2006. – 44b.
10. <http://www.lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
11. <https://www.imv.uz> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti
12. <http://www.stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti
13. <http://www.cbu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti